

**OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MATINLARI TARJIMASIDA TARJIMONNING  
SOXTA DO'STLARI**

**Fayziyev Jaloliddin**

*toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,  
qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o'zbek va arab ommaviy axborot vositalari matnlari, bilografiya, tarjimonning muammolaridan biri deb hisoblanadigan tarjimonning soxta do'stlari haqida dunyo olimlarining bergen fikr mulohazalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ommaviy axborot vositalari matnlarida tarjimonning soxta do'stlari arab va o'zbek kombinatsiyalari misolida ochib berilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *matbuot, kutubxona, ommaviy, axborot, vosita, matn, tarjima, tarjimon, bilografiya, arab, o'zbek.*

O'tmish va bugun maqolani ilk so'zlarini ushbu so'zlar bilan boshlashimdan asosiy maqsad biz bugungi kun, ayni davr, ayni vaqtida yer yuzida istiqomat qilib kelayotgan yosh murg'ak chaqaloqdan tortib yoshi katta bobo va buvigacha tanish bo'lgan, shunchaki tanish bo'libgina qolmay hayotimizning ajralmas bir bo'lagi, bizni turgan joyimizdan qisqa vaqt mobaynida butun yer sha'riga sayohat qildirishga qodir, binobarin yer yuzining qaysi burchagini xohlasak usha joyda bo'layotgan voqeа va hodisalardan xabardor qilishga qodir hayotimizning ajralmas bir bo'lagi shak shubhasiz bugungi kun ommaviy axborot vositalaridir. Shunday ekan biz mazkur maqolada dunyodagi boshqa boshqa mintaqada joylashgan bo'lismiga qaramay bir biri bilan tarixan va bugungi kunda ham o'zaro hayotning turli sohalarida aloqada bo'lib kelayotgan o'zbek va arab xalqlarining tillarini solishtirgan holda ommaviy axborot vositalari matnlari tarjimasida tarjimonning soxta do'stlarini misollar bilan ko'rib chiqamiz va bu bilan bir tildan boshqa tilga ommaviy axborot matnini o'girayotgan tarjimonning nimalarga ahamiyat berishi kerakligiga javob berib o'tamiz. Bundan tashqari maqolada bilografiya va tarjimonning soxta do'stlari haqida dunyo olimlarining bergen fikr mulohazalariga ham alohida e'tibor qaratib o'tamiz. Biz eng avvalo bilografiya tushunchasi haqida qisqacha anglab olsak va shu bilan bu so'zning mavzumizga qanday taluqli jihatli borligini ko'rib chiqamiz.

Bibliografiya so'zi yunoncha bibliion kitob va grafiya yozish matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma'lum ijtimoiy maqsadlarda targ'ib qilish bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi hisoblanadi. Bibliografiya mahsulotlari, nazariyasi, tarixi, faoliyatini tashkil etish va uslubiyati bilan shug'ullanadigan fan Bibliografiya fani deb ataladi. Bibliografiya taraqqiyotini turli xil bibliografik ma'lumotnomalarini tuzadigan maxsus tashkilotlar tizimi ta'minlaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi milliy kitob palatasi

respublika davlat Biblografiyasining asosiy markazidir. O‘zbekiston Respublikasida Bibliografiya ishi bilan, shuningdek O‘zbekiston Davlat kutubxonasi, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi asosiy kutubxonasi va boshqa kutubxonalar ham shug‘ullanadi. Biblografiya ishiga oid ilmiy ishlar asosan Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat Institutining "Biblografiya" kafedrasida olib boriladi. Bibliografiya tuzish qadimgi dunyoda paydo bo‘lgan, jumladan miloddan avvalgi 3-asrda Aleksandriya kutubxonasida Kallimax rahbarligida tuzilgan bibliografik jadval misol bo‘ladi. "Biblografiya" termini dastlab kitob ko‘chirib yozishni anglatgan, vaqt utishi bilan 17-asr o‘rtalaridan kitoblar bayonini bildira boshlagan. Biblografiya tarixi kitob bosish yuzaga kelishi bilan boshlandi. Bosma asarlarning barcha turlari, qo‘lyozmalar, ijtimoiy ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan eng yangi qo‘lyozmalar, dissertatsiyalar, saklashga topshirilgan qo‘lyozmalar biblografiyaning o‘rganish sohasidir. Yuqorida biz biblografiya nima ekanligi haqida qisqacha tasavvurga ega bo‘ldik, endilikda biz maqolamizning yana bir bo‘lagi bo‘lgan Tarjimonning soxta do’stlari nima ekanligi haqida bir necha olimlarning bergen fikrlari yozgan ishlaridan misollar keltirgan holda maqola mavzusini davom ettirsak.

Tarjimonning soxta yoki yolg‘on do’stlari matnni noto’g‘ri tushunishga va tarjima qilishga olib kelishi mumkin. Ulardan ba’zilari qarz olgandan keyin tillarning birida ma’nosi o‘zgarganligi, boshqa hollarda umuman qarz olinmaganligi va so’zlar qadimiy tilda umumiy ildizdan kelib chiqqanligi sababli shakllangan. Har xil ma’noga ega; ba’zida undoshlik tasodifiy bo‘ladi. "Soxta do’stlar" atamasini ilk marotaba M. Kössler va J. Derokchiny tomonidan 1928 yilda "Les faux amis ou Les pièges du vocabulaire anglais" kitobida kiritilgan. Tarjimonning yolg‘on do’stlarining alohida holati soxta internatsionalizm- xalqaro lug‘at so’zleri bilan bog‘langan va tarjimada har xil qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan tillararo omonimlar (ularning grafik va / yoki fonetik ko‘rinishida): to’liq yoki talaffuz, leksik moslikning buzilishi yoki so’zlarning stilistik kelishuvi. Tarjimonning yolg‘on do’stlarining yana bir o‘ziga xos holati - bu ichki ko‘rinishida turli tillarda mos keladigan, lekin umuman boshqacha ma’noga ega bo‘lgan leksik birliklar (so’z va iboralar): Yuqorida keltirgan olimlardan tashqari , Tarjimada tarjimonning soxta do’stlari mavzusida yana juda ko’plab olimlar o‘z fikr va mulohazalarini bildirishgan masalan, Ronni Fergusson. Italiyaning yolg‘on do’stlari (Toronto italyan tadqiqotlari) ISBN 0-80-206948-7 Nashriyot: Toronto universiteti matbuoti, Dolgopolov Yuriy (Dolgopolov Yuriy). Ishonchli iboralar to’plami. Idioma va birikmalardagi soxta "do’stlar" va "dushmanlar". Nashriyot: Llumina Press, 2004, Akulenko V.V., Komissarchik S. Yu., Pogorelova R.V. (tahrirlangan V.V. Akulenko). "Tarjimonning yolg‘on do’stlari" inglizcha-ruscha va ruscha-inglizcha lug‘ati. M.: Sovet entsiklopediyasi, 1969. Borisova L. I. Tarjimonning yolg‘on do’stlari. Umumiy ilmiy lug‘at. Ingliz tili. Nashriyot: NVI-Tezaurus, 2002. Gottlieb K. G. M. "Tarjimonning yolg‘on do’stlari" lug‘ati (rus-nemis va nemis-rus) Nashriyotlar: Moskva: Sovet entsiklopediyasi, 1972; M.: Rus tili, 1985. Kanonich S. I. Tarjimonning 300 ta soxta

do'stlari. Ispancha-ruscha lug'at-ma'lumotnoma. ISBN 5-834-60111-1 Nashriyotchi: Menejer, 2001. Krasnov K.V. "Tarjimonning yolg'on do'stlari" inglizcha-ruscha lug'ati. ISBN 5-9875-034-5 Nashriyot: M.E.RA, 2004. Paxotin A. I. Yolg'onchi so'zlarning inglizcha-ruscha, ruscha-inglizcha izohli lug'ati ("yolg'on do'stlar"). ISBN 978-5-98035-022-2.

Ommaviy axborot vositalari matnlarida tarjimonning soxta do'stlari arab va o'zbek kombinatsiyalari misolida:◦

Arab tilidagi الرَّئِيس

rais so'zi "prezident" degan ma'noni anglatadi. O'zbek tilida uning ma'nosi mahalla raisi, oqsoqoli yoki rais buvaga aylandi.

زیر اماره

ziyorat arab tilida safar qilmoq ma'nosini beradi, o'zbek tilida ziyorat qilmoq ya'ni qaysidir qadamjolarga bormoq yoki o'z nomi bilan ziyoratgohlarga borish.

Arab tilidagi من (min) so'zi predlog, qo'shimcha bo'lib, dan degan ma'noda keladi. O'zbek tilida esa min buyruq manosida kelib otga min, eshshakka min. Yuqorida biz keltirgan kombinatsiyalar faqatgina misol tariqasida edi xolos, keyinchalik tadqiqotimiz juda ko'plab tarjimonning soxta do'stlaridan misollar keltiramiz.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki hech bir shak shubha yo'qki, tarjima inson faoliyatining juda qadimi ajralmas shakli hisoblanadi. Tarjimon faoliyatidagi muhim qiyinchiliklardan biri "tarjimonning yolg'on do'stlari" deb nomlangan tillararo hodisadir. Bu hodisa tarjimonlar va tilshunoslar uchun katta qiziqish uyg'otadi, chunki bu toifadagi so'zlar hatto tilni yuqori darajada biladigan tarjimashunoslik sohasidagi mutaxassislarni ham yo'ldan ozdirishi mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu tillararo hodisa ikki qarindosh tilning o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'lgan. "Tarjimonning yolg'on do'stlari"-bu omonimlar va paronimlar, ya'ni. ikki tilda imlosi yoki talaffuzi o'xshash, ko'pincha umumiyl kelib chiqadigan juft so'zlar; ammo, ular ma'nosi bilan farq qiladi. Maqolada tarjimonga Tarjimonning soxta do'stlari nima ekanligi haqida arab va o'zbek tilidagi ba'zi bir so'zlarnigina qiyoslagan holatda misollar keltirilgan, hali tarjimonning soxta do'stlari talaygina. Tarjimashunoslikda bu mavzu etarlicha o'rganilganiga qaramay, u dolzarb bo'lib qolmoqda va yanada chuqurroq tadqiqotni talab qiladi. Bugungi kunda bizning davrimizda hayotni arabtilisiz tasavvur qilish qiyin. Nafaqat ommaviy axborot balki hayotimizning har bir sohasida biz ta'lim, dam olish, sayohat va boshqa ko'p narsalarni bilishni xohlaymiz. Ammo, chet tillarini o'rganishga bo'lgan katta qiziqish va qiziqishga qaramay, ba'zi so'zlar va iboralarni tarjima qilishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Chet tilini o'rganadigan har bir kishi, xususan arab tili, shubhasiz, ba'zi so'zlar bizga ona tilimizdan tanish bo'lganiga e'tibor qaratgan. Asosan, bu so'zlar nafaqat arab tilida, balki boshqa ko'plab tillarda ham qo'llaniladi. Maxsus adabiyotlarda ular xalqaro so'zlar deb ataladi. Bunday so'zlar ko'pincha chet el matnnini tushunishni osonlashtiradi, lekin ba'zida ular "tarjimonning yolg'on do'stlari" bo'lib chiqishi mumkin, ya'ni ovozi va imlosi o'xshash, lekin har xil

2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR

tushunchalarni ifodalashi mumkin, bu ko'pincha nafaqat noto'g'ri tushunishga, balki tushunmovchiliklarga ham. Bu mavzuga bo'lgan qiziqishimiz tasodifiy emas, chunki bu toifadagi so'zlarda talabalar tomonidan qilingan xatolar juda ko'p.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Akulenko, V.V. Tarjimonning yolg'on do'stlari haqida. [Elektron manba] -  
<http://linguistic.ru/index.php?Id=79&op=kontent>
2. Borisova L.I. Tarjimonning yolg'on do'stlari. - M., 2005 yil
3. Budagov R.A. Inson va uning tili. - M., 2001 yil
4. Samoylov, D.V. Tarjimonning yolg'on do'stlari. [Elektron manba] -[http://www.lingvotech.com/lognie\\_dryzyal](http://www.lingvotech.com/lognie_dryzyal)
5. "Tarjimonning yolg'on do'stlari." [Elektron manba] -[http://www.normatm.ru/false\\_friends.html](http://www.normatm.ru/false_friends.html)
6. "Tarjimonning yolg'on do'stlari." [Elektron manba] -<http://ru.wikipedia.org/wiki/>
7. Учебник арабского языка для продолжающих, Часть 5, Яковенко Э.В., 2015
8. Alimov X. Tarjimon ruhiyati, Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami). 6-kitob. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985, 258-bet.
9. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014
10. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978.
11. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: "Fan", 1966.
12. "O'zbek tilining izohli lug'ati E-M Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2000.
13. Musayev Q. Tarajima nazariyasi asoslari: Darslik.-Toshkent:O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti,2005.-B.8.
14. G`ofurov I., Mo`minov O., Qambarov N.Tarjima nazariyasi.-Toshkent:Tafakkur Bo`stoni,2012.-B.29.